

# FRANSUZ TILIDA MURAKKAB NISBIY OLMOSHLARNING ISHLATISH METODIKASI

*Hamdamova Muqaddas Xamidovna,*

*Samarqand tibbiyot Universiteti xorijiy tillar kafedrasining o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Bu maqolada fransuz tilini o'rganuvchi maktab, litsey, kollej o'quvchilari va institut hamda universitet talabalariga fransuz tilidagi grammatik fragmentlarni xususan, sodda va murakkab nisbiy olmoshlarni (*qui, que, don't, lequel, laquelle*) og'zaki va yozma nutqda oson hamda qulay ishlatishni o'rganishlari uchun kichik metodik ishlanma hisoblanadi. Bu yerda na'muna misollar orqali bu olmoshlar qanday gaplarda va qanday holatlarda ishlatilishi mumkinligini tushuntirishga harakat qilingan

**Kalit so'zlar:** nisbiy olmosh, aniqlovchi ergash gap, ot, olmosh, *qui, que, dont, lequel, laquelle, predloglar, bosh gap, кому, кого, чего, чему.*

## Kirish

Fransuz tilida nisbiy olmoshlar aniqlovchi ergash gapni bosh gapga bog'lab keladi. Ular bosh gapdagi biror ot yoki olmosh o'rniga qo'yiladi. Bu ot yoki olmosh "antecedant" deb ataladi. Ular ikkita gapdan tashkil topgan qo'shma gaplarda bitta so'zni ikki marta takrorlanmasdan bir marta ishlatilib, ikkinchi gapda ushbu nisbiy olmoshlar bn ifodalanilishini bildiradi.

**Asosiy qism:** Nisbiy olmoshlar aniqlovchi ergash gapning bir bo'lagi bo'lib, ular tuzilishiga ko'ra ikki turlidir:

1. Rod va sonda o'zgaraydigan sodda nisbiy olmoshlar: *qui, que, dont, quoi* .
2. Rod va sonda o'zgaradigan qo'shma nisbiy olmoshlar: *lequel, laquelle, lesquels, lesquelles* .

Murakkab nisbiy olmoshlar " **a va de** " predloglari bilan qo'shilganda quyidagi formalarni hosil qiladi

### "A" predlogi bilan

à + *lequel* = *auquel*

à + *lesquels* = *auxquels*

à + *lesquelles* = *auxquelles*

**Masalan:** C'est le probleme **auquel** nous pensons toujours . Bu biz doim o'ylab yuradigan muammodir.

### "De" predlogi bilan

de + *lequel* = *duquel*



de + lesquels = desquels

de + lesquelles = desquelles

**Masalan:** Le square **au milieu duquel** il y a un monument est tres beau . O’rtasida haykal o’rnatilgan hiyobon juda chiroyli .

Jenskiy rodna murakkab nisbiy olmoshlar “ a va de” predloglari bilan birlashmaydi , ular a laquelle , de laquelle shaklida ishlatiladi.

**Masalan :** La salle **au mileu de laquelle** il y a une fleur est large. O’rtasida gul bor zal keng .

Murakkab nisbiy olmoshlar ko’pincha predloglar bilan qo’llanilib, gapda vositali to’ldiruvchi, aniqlovchi va hol bo’lib keladi. Duquel , de laquelle , desquels ,desquelles nisbiy olmoshlari jonsiz predmetlar uchun **dont** olmoshini qo’llash mumkin bo’lmagan hollardagina qo’llaniladi. Lequel, laquelle, lesquels, lesquelles

murakkab nisbiy olmoshlari ega yoki vositasiz to’ldiruvchi vazifasida kam qo’llaniladi, ularning o’rniga **qui, que** olmoshlari ishlatiladi.

**Masalan:** Le prof qui (lequel) parle dans la classe est ma soeur. Sinfda gapirayotgan o’qituvchi mening opam.

Umuman olganda o’zbek guruhlarida o’qiydigan o’quvchilar nisbiy olmoshlarni rus guruhda o’qiydigan o’quvchilarga nisbatan bir oz tushunishga qiynaladi chunki ularda **кому, кого, чего, чему** kabi nisbiy olmoshlarni fransuz tili variantiga shundoqqina o’rniga qo’yib ketadi.O’zbek guruhda o’qiydigan bolalarga shuni ta’kidlash kerakki, nisbiy olmosh har doim ikkita gapni bir biriga bog’lab, o’rtada bog’lovchi vazifasini bajaradi. Ular doim ikkinchi gapda tushib qolgan so’zning o’rniga qo’yiladi, tushib qolgan so’z birinchi gapda ishlatigan bo’lishi shart. Nisbiy olmoshli gapda asosiy tahlilni ikkinchi gapga qaratish kerak chunki bu gap nisbiy olmoshli gapni yuragi hisoblanadi.Murakkab nisbiy olmoshlarni qo’llashda ko’pincha ikkinchi gap boshida biror o’rin joyni bildiruvchi so’z yoki predlog ishlatiladi va tushib qolgan so’zning kopluk birlik rodiga qarab murakkab nisbiy olmosh moslashtiriladi.

**Masalan:** Les Alpes **au sommet desquelles** il y a toujours de la neige sont de grandes montagnes dans le monde entier. Dunyodagi eng baland Alp tog’ining cho’qqisida har doim qor bo’ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI:

1. « Le grammaire de francais“ M.U.Ubaydullayev, O.V.Saxno, E. Xudoyberganova. 2008 .
2. 2.” Le francais” Z.Davronova, Z .Aytuganova, U.Akramov, F. Akramova 2014.
3. “ Pratique de francais”A. Papova, S . Kazakova 1989.
4. “ Grammaire de francais”M. N. Malina 1978
5. Utile grammaire.fr
6. Ziyonet.uz

